



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

“QO‘SHIQLAR KITOBI” “LAYLI VA MAJNUN” DOSTONLARI SHAKLLANISHIDA ASOSIY MANBA

Turdiyeva Maftuna Abdurahmonovna

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, o‘qituvchi, PhD

Annotatsiya

Sharq adabiyotida, xususan, epik she‘riyatida Layli va Majnun mavzusining takomili va unga xos yetakchi tamoyillar xamsanavislik an‘anasi doirasida yaratilgan “Layli va Majnun” dostonlarida namoyon bo‘lgan. Ushbu mavzuda asar yozish an‘anasining vujudga kelishida adabiy manbalar muhim omil bo‘lganini e‘tirof etish zarur. Maqolada Layli va Majnun obrazlari genezisiga doir ma‘lumotlar she‘rshunos olim Abul Faraj Isfahoniy manbasi asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Abul Faraj Isfahoniy, manba, doston, obraz, Qays, Majnun, Layli.

«КНИГА ПЕСЕН» КАК ОСНОВНОЙ ИСТОЧНИК ФОРМИРОВАНИЯ ПОЭМ «ЛЕЙЛИ И МЕДЖНУН»

Турдиева Мафтуна Абдурахмоновна

Узбекский государственный университет мировых языков, преподаватель, PhD

Аннотация

В восточной литературе, в частности в эпической поэзии, развитие темы Лейли и Маджнуна и присущих ей руководящих принципов проявилось в эпосах «Лейли и Маджнун», созданных в рамках традиции хамсанависов. Необходимо признать, что литературные источники сыграли важную роль в формировании традиции написания произведений на эту тему. В статье анализируется информация о генезисе образов Лейли и Маджнуна на основе источника поэта-ученого Абул Фараджа Исфахани.

Ключевые слова: Абул Фараджа Исфахани, источник, эпос, образ, Кайс, Маджнун, Лейли.

THE BOOK OF SONGS AS THE MAIN SOURCE IN THE FORMATION OF THE LAYLI AND MAJNUN EPICS

Turdiyeva Maftuna Abdurahmonovna

Uzbekistan State World Languages University, Lecturer PhD

Abstract

In Eastern literature, in particular, in epic poetry, the development of the theme of Layla and Majnun and its inherent guiding principles were manifested in the epics “Layla and Majnun”, created within the framework of the tradition of khamsanavisi. It is necessary to recognize that literary sources were important factor in the emergence of the tradition of writing works on this topic. The article analyzes information on the genesis of the images of Layla and Majnun based on the source of the poet scholar Abul Faraj Isfahani.

Keywords: Abul Faraj Isfahani, source, epic, image, Qays, Majnun, Layla.

Layli va Majnun haqidagi qissaning turli variantlari jamlangan asarlar va to‘plamlar dostonlarga asos bo‘lgan yetakchi tendensiyalar shakllanishiga zamin yaratdi hamda shu nomdagi, ammo bir-biridan farqli talqinlardagi dostonlarning yuzaga kelishiga ta‘sir qildi. Bu borada uch asosiy manbani alohida qayd etish joiz. Ya‘ni, Ibn Qutaybaning “Kitob ash-she‘r va-sh-shuaro” asari qadimiyroq (IX asr), ya‘ni Layli va Majnun yashagan davr deb qaraladigan asr (VII asr)ga nisbatan yaqinligi bilan qimmatli. Abul Faraj Isfahoniyning “Kitob al-ag‘oniy” (“Qo‘shiqdar kitobi”) esa ma‘lumot jihatidan eng to‘liqligi, Abu Bakr Volibiyning “Devoni Majnun va Layli”si esa Nizomiyning “Layli va Majnun” (1188) dostoni yaratilishidan sal oldin (XI–XII asrlar) yaratilgani bilan muhim manbalar hisoblanadi.

Ilk xamsanavis, xususan, ilk “Layli va Majnun” dostoni muallifi sifatida Nizomiy Ganjaviy uchun ham Isfahoniyning “Kitob al-ag‘oniy” (“Qo‘shiqdar kitobi”) adabiy manba bo‘lib xizmat qilgan, deyish mumkin. Negaki, Nizomiyning ushbu dostonni yaratishda arab, fors, arman va yunon tillaridagi eski manbalarni ham o‘rganganligi haqida ma‘lumotlar mavjud [3, 14]. Nizomiy mazkur manbalardan dostoni uchun kerakli deb hisoblagan voqealarni saralab olib, o‘z dostoni syujetini yaratgach, manbalardagi turli

xil, hatto bir-birini inkor etadigan ma'lumotlarni o'ziga xos kompozitsiya orqali qayta badiiy tartiblagan. Uning bu prinsipi keyingi "Layli va Majnun" dostonlari uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilgan.

Asosiy qism. Arab she'rshunosi Abul Faraj Isfahoniyning (897–967) "Qo'shiqlar kitobi"ni Qays nomi uchraydigan ilk manbalardan biri sifatida aytishimiz mumkin. Bu kitob dastlabki arab musiqa san'ati davri haqida, ya'ni islomgacha bo'lgan davrdan boshlab Isfahoniy yashagan IX asrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida yashagan shoir va qo'shiqchilar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. "Qo'shiqlar kitobi"da Majnun haqida yangi-yangi hikoyalar keltirilgan.

Kitob va muallif haqida Krachkovskiyning "Ранняя история повести о Меджнуне и Лейли в арабской литературе" ("Arab adabiyotida "Layli va Majnun" haqidagi qissaning dastlabki tarixi") nomli maqolasida shunday deyiladi: "U aslida tarixning odatiy xronologiyasiga amal qilmaydi: Majnun hayotining oldingi davridagi voqealar ko'pincha keyingi voqealardan keyin keladi, nasabnoma va boshqa ma'lumotlar Majnun va uning tarixi voqealari haqidagi xabarlar bilan aralastirib yuborilgan va hech qanday rejasiz kiritilgan. Garchi unda o'zigacha bo'lgan yetarli miqdordagi ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, Isfahoniy ularni to'liq izchil xabarlar zanjiriga aylantirishga intilmaydi" [6, 493].

Ammo shunday bo'lsa-da, Abul Faraj Isfahoniyning "Qo'shiqlar kitobi" Majnun va uning tarixiy shaxs sifatida mavjudligi yuzasidan bir nechta tarixchi hamda manbashunoslarning ma'lumotlari keltirilganligi bilan qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu ma'lumotlarda bir-biriga zid o'rinlar ham mavjud. Biz ular orasidan bir-biriga yaqin va qissa syujetiga muvofiq bo'lganlarini saralab oldik. Shu asosda mazkur qissa qahramoni Majnun siymosini tasavvur qilish mumkin.

Ma'lumki, Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonlari farzandsizlik motivi bilan boshlanadi. Ushbu dostonlardagi farzandsizlik, Xudoga yolvorib farzand so'rash motivlari arab manbalaridan emas, balki xalq og'zaki ijodi va qadimiy eposlardan olingan, deyish mumkin. Chunki mazkur qissa mavjud bo'lgan adabiy manbalarda Qaysning tilab olingan farzand ekani haqida ma'lumot uchramaydi.

Aksincha, Isfahoniyning "Qo'shiqlar kitobi"da quyidagicha ma'lumot bor: "Ahmad ibn Abdulaziz va Habib ibn Nasr aytishdi: bizga Umar ibn Shiya rivoyat qildi. U esa Haytsam ibn Adiydan, u esa Usmon ibn Umora ibn Harim Mariydan eshitganini rivoyat qiladi: "Men Majnunni uchratish umidida Bani Omir yurtiga yo'l oldim. Menga uning qayerda yashashini ko'rsatishdi. Bordim. U yerda otasini, bir to'da farzandlari qurshovida, keksayib qolgan holatda uchratdim. Ulardan Majnun haqida so'radim. Ular yig'lab yuborishdi. Keksa ota dedi:

— Oллоh guvoh, u menga bu yerda turganlarning barchasidan ham qadrliroq edi. U o'z qavmidan bir qizni sevib qolgan edi. Qiz Majnun orzu qilishiga ham loyiq emasdi. Lekin ularning muhabbati oshkor bo'lib qolgandan keyin qizning otasi uni Majnunga bermay, boshqa birovga turmushga chiqardi" [11].

O'z "Layli va Majnun" dostonini yozishda arab manbalaridagi ushbu qissa syujetiga qat'iy amal qilishga uringan Abdurahmon Jomiyning dostonida esa Qaysning oilasi tarkibi yuqoridagi ma'lumotlarga yaqin tarzda tasvirlanadi. Ya'ni Jomiy dostonida Qays otasining o'n ikkinchi va eng sevimli farzandi bo'ladi.

"Qo'shiqlar kitobi"dagi Qays otasi aytgan: "Qiz Majnun orzu qilishiga ham loyiq emasdi" degan jumla Jomiy dostoni syujetida o'g'lining Layliga ko'ngil qo'rganini bilgan ota qiz oilasini o'ziga munosib ko'rmasligi voqeasi orqali badiiy shakllantirilgan. Salaflarda va Navoiy dostonida esa Qaysning otasi Layli oilasiga bunday munosabatda bo'lmaydi. Faqat Layli tomoni Qaysning telbaligidan or qilgani aytiladi.

"Qo'shiqlar kitobi"ga ko'ra, Qays o'z so'zida turib olgach, uning ota-onasi Laylining qo'lini so'rab borishga majbur bo'lishadi. "Ahmad ibn Abdulaziz Johariy va Habib ibn Nasr Muhallabiy bizga quyidagicha rivoyat qilgan: ular aytadilar – bizga Umar ibn Shabba xabar berdi, u esa Hishom ibn Kalbiydan rivoyat qilgan. Bu rivoyatda Abu Nasr Ahmad ibn Hotam ham Hishomga muvofiq kelgan. Hasan ibn Ali ham bizga rivoyat qilib, Ibn Abu Said orqali, u esa Ali ibn Sabohdan, u Hishom ibn Kalbiydan, u esa otasidan eshitib shunday degan: "Majnunning otasi, onasi va qabilasining erkaklari Laylining otasi oldiga borishdi. Unga nasihat qilib, Alloh nomi va qarindoshlik haqqi bilan iltimos qilishdi: «Bu yigit halokat yoqasida, aqlidan ayrilmoqda. Sen esa uning otasini, ahli ayolini musibatga solmoqchisan. Alloh nomi bilan yolvoramiz, bunday qilma». Ular davom etishdi: «Qiz Majnundan sharafliroq emas, uning (Majnun) otasinikidek mol-dunyong ham yo'q. U to'y mahri uchun hukmni senga topshirdi. Agar xohlasang, butun mol-mulkini berishga ham tayyor. Ammo iltimos qilamiz, rozi bo'!»" Ammo Laylining otasi bu taklifni qat'iy rad etadi.

Shundan so'ng Majnunning yaqinlari undan yuz o'girishadi. Biroq Laylining otasi bu holatni pisand qilmay, darhol qizini qavmidagi bir yigitga nikohlab beradi. Bu xabar Majnunga yetgach, u umidini

tamom yo‘qotib, aqlidan judo bo‘ladi. Qabila odamlari Majnunning otasiga o‘g‘lini Ka‘baga olib borishini, Allohdan bu darddan najot so‘rashini maslahat beradilar. Otasi Majnunni hajga olib boradi. Ular Tanim degan joyga yetganlarida tunda kimdir: “Ey Layli!” deb qichqiradi. Buni eshitgan Majnun dod solib yuboradi. Hamma uni jon taslim qilgan bo‘lsa kerak deb o‘ylaydi. U hushidan ketgan, behush holda yiqilgan edi. Tongga qadar o‘ziga kelmaydi. Ertalab hushiga kelganda rangi oqarib ketgan, hayrat ichida edi. Shunda u bir she‘r aytadi. She‘r quyidagi mazmundan iborat edi: “Ey Xudo, meni Layliga bo‘lgan muhabbatda yanada oshir!” [11].

Nizomiy va Navoiy dostonlarida bu lavha shakllantirilib, yanada badiiylashtirilgan. Ya‘ni dostonlarda Majnun Ka‘bada “Layli” degan xitobni eshitib emas, balki Xudodan Layliga bo‘lgan muhabbatini ziyoda qilishini so‘rab hushidan ketadi.

Ibn Qutaybaning “Kitob ush-she‘r va-sh-shuaro” asaridagi Majnunga oid ma‘lumotlarda uning bolaligida Layli bilan qo‘y-qo‘zi boqgani, Isfahoniyning “Qo‘shiqlar kitobi”da chorva boqishgani, “Devoni Majnun va Layli”da esa qo‘zi boqishgani yozilgan [8, 11]. “Layli she‘rlar va adabiy asarlarni yaxshi bilardi va Banu Omir yigitlari bilan vaqt o‘tkazishni yaxshi ko‘rardi. Ularning ichida Majnun eng qadrdoni edi. Majnun va Laylining bir-birlarini sevib qolganini anglagan Omiriy yigitlar bu haqda Laylining otasiga xabar berishdi” [8, 11].

Ibn Qutayba manbasida ham shu ma‘lumotga muvofiq xabarni kuzatish mumkin: “Majnun va Layli bolaligida birgalikda qo‘y-qo‘zi boqib yurganlarida sevishgan. Majnun kelishgan yigit bo‘lib voyaga yetdi. U yoqimli suhbatdosh va mashhur shoir edi. U Layli va uning yaqinlari bilan gaplashib turardi” [8, 11].

Demak, ikki yosh qo‘y-qo‘zi boqish jarayonida adabiy suhbatlar qurib, shu orqali bir-biriga ko‘ngil qo‘yishgan. Keyinchalik yoshlari ulg‘ayib, ikkisida ham shoirlik iqtidori paydo bo‘lib, bir-birlariga she‘rlar ayta boshlashgan va shu kezlarda muhabbat paydo bo‘lgan. Yoshlari ulg‘aygach, ular endi qo‘zi boqmaydilar, balki qabila yigit-qizlari bilan bo‘ladigan suhbatlarda qatnashadilar.

Bu haqida Isfahoniyning manbasida shunday voqea keltiriladi: “Majnun o‘sha qiz o‘tirgan bir davrada yigitlar bilan suhbatda bo‘lardi. Ularning ichida Majnun eng chiroylisi, eng latofatlisi va arab she‘rlarini eng go‘zal o‘qiguvchisi edi. Majnun gapirsa, suhbatni charog‘on etardi. Qiz (Layli) unga qaramas, boshqasiga yuzlanardi. Ammo Majnunning yuragiga tushgan o‘tday, qizning yuragiga ham o‘sha tuyg‘u tushgan edi. Qiz Majnunning yuragidagini sezar, biroq ishonmasdi” [11].

Va Layli bir kuni Majnunga yuragidagini she‘rida ifodalaydi:

Men sening ko‘zingda dard izini ko‘rdim,

Sen yonsang, men ham yonaman, yolg‘izim.

Men ham senga oshiqman, bu ishni yurak bildi,

Ikkovimiz ham xalq orasida fazl-u kamol bilan tanilganmiz,

Har birimiz ikkinchimizga suyanadigan do‘stmiz [11].

Ayni shu voqeani qayta ishlab, “Layli va Majnun” dostonlarida takomillashtirgan xamsanavislar — Nizomiy, Dehlaviy va Navoiy bu ishqiy epizodni o‘zgacha talqin qiladilar. Majnun va Layli o‘tirgan suhbat davrasi maktab muhitiga aylantiriladi. Davradagi yoshlar ichida Majnunning “eng chiroyli, latofatli, arab she‘rlarini go‘zal o‘qiguvchisi” sifatlariga yana eng bilimli va zukko degan fazilatlar ham qo‘shiladi.

“Qiz Majnunning yuragidagini sezar, biroq ishonmasdi” jumlasini ham rivojlantirilib, Navoiy tomonidan Layli Qaysni ko‘rgach, undagi o‘ziga bo‘lgan hislarni sezishi va buni oydinlashtirish uchun gulzor sayri lavhasi kiritiladi. Salaflarda esa bunday lavha mavjud emas.

“Layli bir kuni Majnunga yuragidagini she‘rida ifodalaydi” degan xabar esa Navoiy dostonida Laylining Majnunning g‘amginligini ko‘rib, gulzorda undan hol so‘rashi jarayoni bilan shakllantirilgan.

“Qo‘shiqlar kitobi”dan keltirilgan yuqoridagi Layli aytgan she‘r mazmunidan anglashiladiki, Layli ham, Majnun ham xalq orasida fazl-u kamol bilan tanilgan yoshlar bo‘lishgan. Ayni shu jihat ham Nizomiy va Navoiy dostonlarida alohida urg‘u bilan takomillashtirilgan. Bu dostonlarda Layli ham, Majnun ham ilm-ma‘rifatga intilgan, nazmi ravon va salohiyatli yoshlar sifatida tasvirlanadi.

Xulosa. Layli va Majnun mavzusining ildizlari qadim arab manbalariga borib taqaladi. Mavzuning ilk asoslaridan biri sifatida o‘rta asr arab she‘rshunosi va manbahunosi Abul Faraj Isfahoniyning “Kitob al-ag‘oniy” asarini ko‘rsatish mumkin. Mazkur manbadagi Layli va Majnunga doir ma‘lumotlarni bilish ushbu mavzu asosida yaratilgan dostonlar evolyutsiyasidagi adabiy ta‘silarni hamda syujet, motiv, obrazlar va asarning g‘oyaviy xususiyatlarini aniqlash imkonini berishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Alisher Navoiy. Layli va Majnun. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti,

2006. – 304 b.

2. Abdurahmon Jomiy. Layli va Majnun / O. Bo‘riyev tarjimasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1989. – 256 b.
3. Алиев Г. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. – М.: Наука, 1985. – С. 14–25.
4. Бертельс Е.Э. Навоий / рус тилидан И. Мирзаев таржимаси. – Тошкент: Tafakkur qanoti, 2015. – 320 б.
5. Бертельс Е.Э. Низами. – М.: Издательство Академии наук СССР, 1956. – 556 с.
6. Жамматова М. Ранние источники дастана «Лейли и Меджнун» // Актуальные проблемы тюркологии: Россия и тюрко-мусульманский мир: материалы международной тюркологической конференции. – Казань, 2021. – С. 493–498.
7. Крачковский И.Ю. Избранные сочинения. Т. II. – Москва; Ленинград: Наука, 1956. – 742 с.
8. Kudelin A. Arabic Literature: Poetics and Stylistics // Manuscripta Orientalia. – 2004. – Vol. 10. – No. 2. – P. 3–15.
9. Nizomiy Ganjaviy. Layli va Majnun / Jamol Kamol tarjimasi. – Toshkent: Extremum Press, 2017. – 288 b.
10. Xodjayeva Ra‘no. Mumtoz arab adabiyoti janrlar tizimi va tipologiyasi: monografiya. – Toshkent, 2015. – 220 b.
11. Al-Ag‘oniy [Elektron resurs]. – URL: Al-Ag‘oniy elektron manbasi